

YANGI O‘ZBEKISTONNING TARAQQIYOT STRATEGIYASIDA MA’NAVIY YANGILANISH MUAMMOLARI

Sodiqov Islombek Otabek o‘g‘li

G‘ijduvon tuman 1-son kasb-hunar maktabi o‘qituvchisi

sodislom@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada bugungi kunda O‘zbekiston taraqqiyotining yangi davri va bu rivojlangan yangi ma’naviy makonni shakllantirishni taqozo qilishi yoritilgan. Yangi O‘zbekiston strategiyasi bu boradagi ishlarning huquqiy va asosiy poydevori bo‘lib xizmat qilishi e’tiborga olingan.

***Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, taraqqiyot strategiyasi, ma’naviy islohotlar, milliy g‘oya, mafkuraviy jarayonlar.*

***Annotation.** The article examines nowadays new era of Uzbekistan’s development and the need to create a new developed spiritual space. It was noted that the strategy of New Uzbekistan serves as the legal and main foundation of work in this regard.*

***Key words:** New Uzbekistan, development strategy, spiritual development, national idea processes*

KIRISH

Maqolada Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ma’naviy yangilanish muammolari keltirib o‘tilgan. Ilmiy maqolada “Inson qadri uchun” tamoyiliga asoslangan ustuvor yo‘nalishdan iborat Yangi O‘zbekistonning 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi va ma’naviy yangilanishlar yoritib berilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ushbu maqolada muhtaram Prezidentimizning “Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asaridan foydalanilgan. Asarda Yangi O‘zbekiston va Uchinchi Renessansni qurish bo‘yicha qilinayotgan ishlar va milliy taraqqiyot istiqbollari haqida fikr yuritiladi.

Bunda xalqimizning faravonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish, inson huquqlari va manfaatlarini

soʻzsiz taʼminlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan islohotlarning ustuvor yoʻnalishlari belgilandi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yangi Oʻzbekiston strategiyasi har birimizdan yangicha tafakkur uslublari va zamonaviy dunyoqarash tamoyillarini shakllantirishga alohida eʼtibor qaratishimizni taqozo etmoqda. Shu bilan birga, jamiyat hayoti va davlat qurilishi takomillashib, hayotimiz va unga munosabatimiz oʻzgarib borayotgani ham bu boradagi tasavvurlarimiz yangilanishining maʼnaviy mezoniga aylanmoqda.

Strategiyadagi inson qadrini yuksaltirish, uning haq-huquqlarini himoyalash, orzu-umidlarini roʻyobga chiqarish borasida amalga oshirilishi koʻzda tutilayotgan ustuvor tamoyillar va dolzarb vazifalar esa bu yoʻnalishda ham ong va tasavvurlarimizni oʻzgartirishni, bir soʻz bilan aytganda, butun jamiyatimizning maʼnaviy yangilanishini zaruratga aylantirdi. Ushbu strategiya ana shu yoʻlda fuqarolarni birlashtiradi, yakdil va hamfikir boʻlishlariga xizmat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining ustuvor yoʻnalishlarini qatʼiy belgilab olib, kuch va imkoniyatlarni jamlash, qayd etilgan ustuvor yoʻnalishlar boʻyicha taraqqiyotni taʼminlash uning maʼno-mazmunini tashkil etdi.

XULOSA

Milliy gʻoya paradigmasi asosida milliy masalani shakllantirish va hal qilish modelini ishlab chiqish dolzarb muammolardan hisoblanadi. Shu oʻrinda taʼkidlash kerakki, milliy gʻoyani tahlil qilish va uni muvaffaqiyatli ishlashi uchun xalq turmush tarzining maʼnaviy-axloqiy mezonlarini hisobga olganda holda ish tutish muhim ahamiyatga ega. Aynan taraqqiyot strategiyasida milliy gʻoyani milliy miqyosdagi gʻoyalar majmuasi sifatida tushunish va zamonaviy siyosiy jarayonda uning roli va ahamiyatini oʻrganishda ustuvor ahamiyat kasb etdi.

XXI asr insoniyat tarixida yangi davrni boshlab berdi. Bashariyat taqdirida inson va jamiyatni ozod etishning yangi bosqichi, yalpi yangilanishlar jarayoni amal qila boshladi. Bunday tarixiy oʻzgarishlar dunyo iqtisodiy, maʼnaviy hamda mafkuraviy jarayonlarining keng miqyosli yangilanishlar pallasiga kirganligining ifodasidir.

Umumjahoniy yangilanishlar jarayoni avval muayyan mamlakat, keyin bir guruh davlatlar, oxir-oqibatda barcha mamlakatlar taqdiriga, jamiyatlar va jamoalar, alohida insonlar hayotiga bevosita va bilvosita taʼsir koʻrsata boshladi. Dunyo yangilanishlari jarayoniga har bir davlat oʻz taraqqiyot koʻlami, ilmiy-maʼrifiy va maʼnaviy saviyasi, kamoloti darajasidan kelib chiqqan holda qoʻshila boshladi.

Yangilanayotgan Oʻzbekiston jahon hamjamiyatida oqimida oʻzining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy, maʼnaviy-mafkuraviy yangilanishlar dasturini ishlab chiqqan mamlakat sifatida oʻziga xos va oʻziga mos mavqe egallab bormoqda.

Ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy hayotni maqsadli takomillashtirish, bu muhitni umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg'unligi ruhida rivojlantirish, "Islohotlar xalq uchun" tamoyili asosida mamlakatimizda yangilanishlar jarayoni boshlanishiga nazariy poydevor qo'yildi. Davlat tizimi, jamiyat qurilishi va shaxs ma'naviy dunyosini tubdan isloh qilish yangilangan davlat, o'zgargan jamiyat va komil shaxsni yaratish imkonini bermoqda. O'zbekiston yangilanishlar jarayonini ikki o'zaro uzviy bog'langan yo'nalishlarda amalga oshirishga kirishdi, Birinchisi, mamlakatning ichki dunyosida, yani iqtisodiyog, ma'naviyat, siyosat, turmush tarzida amalga oshiriladigan yangilanishlar majmuidan iborat bo'lsa, ikkinchi yo'nalish, xalqaro hamjamiyatda Yangi O'zbekiston ma'naviy qiyofasini, ijtimoiy muhit manzarasini takomillashtirish, ya'ni qarama-qarshi kuchlar o'rtasidagi ziddiyatlarni barqarorlashtirish, hamjihatlik, tinchlik madaniyatiga o'tish, insoniyatga umumiy xavf tug'diruvchi terrorizm, narkobiznes, ekstremizmga qarshi xalqaro tashkilot tuzilmalari bilan hamkorlik va boshqa faoliyatlar majmuidan tashkil topadi.

O'zbekistonda ma'naviy-mafkuraviy islohotlar olib borish, milliy qadriyatlarni tiklash, yangi avlodni tarbiyalash konsepsiyasi amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tomonidan ilgari surilgan "Yangi O'zbekiston strategiyasi" – mamlakatimizda "Yangi O'zbekiston", "Uchinchi Renesans poydevori" g'oyasini amalga oshirish, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilish va milliy g'oyani rivojlantirish omili ekanligidan dalolat beradi. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'z ma'ruzasida quyidagi g'oyani oldinga surdi: "Albatta, biz mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo'lgan yoshlarni tarbiyalash bo'yicha katta ishlarni amalga oshirmoqdamiz. Ammo xolisona tan olib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda butun dunyoda aholining, birinchi navbatda, yoshlarning ongi va qalbini egallash uchun qanday keskin kurash borayotganini, diniy ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, «ommaviy madaniyat» kabi tahdidlar kuchayayotganini hisobga oladigan bo'lsak, farzandlarimiz tarbiyasi, ma'naviy-ma'rifiy sohadagi ishlarimizni bir zum ham susaytirmasdan, aksincha, ularni yangi bosqichga ko'tarishimiz zarur"[1]. Davlat rahbarining ushbu g'oyaviy qarashlari O'zbekiston davlatining ma'naviy-ma'rifiy siyosat sohasidagi kelgusidagi ustuvor yo'nalishini aniq belgilab berdi. Natijada 2017 yil 28 iyulda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorliini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida»gi PQ-3160-sonli, 2019 yil 3 mayda "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (PQ-4307-son)[3] qarorlari hamda «O'zbekiston

taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoyishi qabul qilindi.

Ushbu strategiya ana shu yo'lda fuqarolarni birlashtiradi, yakdil va hamfikir bo'lishlariga xizmat qiladi. Jamiyat taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini qat'iy belgilab olib, kuch va imkoniyatlarni jamlash, qayd etilgan ustuvor yo'nalishlar bo'yicha taraqqiyotni ta'minlash uning ma'no-mazmunini tashkil etadi.

Mamlakatimiz taraqqiyotining hozirgi davrida strategik rivojlanish bilan bog'liq yo'nalishlar Yangi O'zbekiston strategiyasida quyidagicha o'z aksini topgan:

- erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish, inson qadr-qimmatini va uning qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
- adolat va qonun ustuvorligini mustahkamlash, inson qadr-qimmatini ta'minlash;
- milliy iqtisodiyotni rivojlantirish;
- adolatli ijtimoiy siyosat yuritish va inson kapitalini rivojlantirish;
- ma'naviy va ma'rifiy sohalarida islohotlarni amalga oshirish;
- global muammolarning milliy va mintaqaviy darajadagi yechimlarini topish;
- tinchlik va xavfsizlikni ta'minlash, xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlardan iborat.

Ma'naviy hayotni yangilash, mafkuraviy tamoyillarni aniqlab olishda "inson – jamiyat – davlat" omili hozirgi davr zaruratini aks ettirmoqda.

Bu jihatdan Yangi O'zbekiston strategiyasining ustuvor yo'nalishlari, asosiy tamoyillari va mezonlarini quyidagilardan iboratdir:

birinchidan, Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonining dasturilamali bo'lgan taraqqiyot strategiyasini to'liq amalga oshirish jamiyat a'zolarining islohotlarga daxldorlik tuyg'usi, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga xizmat qiladi;

ikkinchidan, mamlakatda islohotlar va yangilanishlarning keng ko'lamda olib borilishi, raqobatbardosh va ochiq pragmatik makonni yaratish, barqaror rivojlanish maqsadlariga hamohang rivojlanishni ta'minlash kabi paradigmalarga asoslanadigan Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish g'oyasi millatni jipslashtiradi;

uchinchidan, jamiyat qurilishi va davlat boshqaruvining yangilanishi, inson huquq va erkinliklarining ta'minlanishi tamoyillariga amal qilinayotganligini ko'rsatadi;

to'rtinchidan, mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi inson, uning qadri, ehtiyojlari va manfaatlariga qaratilgani, ularning asl qadriyatga aylanayotgani o'zgarishlar hamda yangilanishlarning tub mohiyatini ifodalaydi;

beshinchidan, mulk huquqiga egalikning yangi shakli vujudga kelayotganligi, shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini uyg'unligi tamoyili e'tirof etilayotgan kuchli

fuqarolik jamiyati, demokratik boshqaruv, raqibatbardosh bozor iqtisodiyoti mamlakat va xalq ravnaqi asosiga aylanmoqda;

Strategiyadagi inson qadrini yuksaltirish, uning haq-huquqlarini himoyalash, orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish borasida amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan ustuvor tamoyillar va dolzarb vazifalar esa bu yo'nalishda ham ong va tasavvurlarimizni o'zgartirishni, bir so'z bilan aytganda, butun jamiyatimizning ma'naviy yangilanishini zaruratga aylantirdi.

Bu borada Prezidentimiz tomonidan yaratilgan nazariy-metodologik asoslarga tayangan holda, ushbu yo'nalishda ro'y berayotgan jarayonlarni chuqur tahlil qilish va ba'zida uchrayotgan muammolarni zudlik bilan yechishning samarali yo'llari hamda usullaridan foydalanishni davrning o'zi taqozo etmoqda.

REFERENCES:

1. Mirziyoyev Sh.M "Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz" "O'zbekiston" Toshkent- 2017
2. Mirziyoyev Sh.M "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" "O'zbekiston" Toshkent- 2022
- 3.1 <https://lex.uz/docs/-4071203> ;O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 28.07.2017 yildagi PQ-3160-son
- 3.2 <https://lex.uz/docs/-4320700> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 03.05.2019 yildagi PQ-4307-son